

2020-yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

2020-yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida 268,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati oʼtgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʼsish surʼati oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 186,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʼsish surʼati oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlari hajmi 79,8 mlrd. soʻmni yoki oʼtgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Qurilish ishlari jami

hajmi **268,4 mlrd. soʻm**
oʼsish surʼati **101,4 %**




Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi **2,6 mlrd. soʻm**
ulushi **1,0 %**



Kichik korxona va mikrofirmalar


hajmi **186,0 mlrd. soʻm**
ulushi **69,3 %**



Norasmiy sektor

hajmi **79,8 mlrd. soʻm**
ulushi **29,7 %**

Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi 233,2 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 86,8 % ni, o'sish sur'ati 173,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,4 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 5,4 % ni, o'sish sur'ati 81,1 % ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 20,8 mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan 7,8 % ni, o'sish sur'ati 174,7 % ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan turar-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan turar-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Iqtosodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari (*mlrd. so'm*)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Bino va inshootlar qurilishi

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 265,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,9 % ini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'ati ko'rsatkichiga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3,0 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,1 % ini tashkil qildi




Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilning mos davriga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	268,4	101,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	92,1	100,6	34,3
Kattaqo'rg'on sh.	4,7	101,8	1,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	21,7	101,5	8,1
Bulung'ur	6,5	102,7	2,4
Jomboy	13,8	103,6	5,2
Ishtixon	13,8	100,5	5,1
Kattaqo'rg'on	9,4	102,9	3,5
Qo'shrabot	7,1	100,3	2,6
Narpay	9,4	100,8	3,5
Nurobod	4,1	101,1	1,5
Payariq	17,5	101,6	6,5
Pastdarg'om	17,3	102,4	6,5
Paxtachi	8,5	101,3	3,2
Samarqand	13,0	102,0	4,8
Tayloq	13,5	103,1	5,1
Urgut	16,0	102,0	6,0


Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Samarqand shahrida 92,1 mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida 21,7 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida 17,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'atlari % da



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan, Jomboy tumanida 103,6 %, Tayloq tumanida 103,1 %, Kattaqo'rg'on tumanida 102,9% Bulung'ur tumanida 103,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Jami hajmiga nisbatan % da



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

I.Raxmatov
(66) 235-60-82